

ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Open Access, Peer Reviewed Journal

Scientific Journal



www.innoworld.net
+998 33 0178868



ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 3, Issue 2
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

www.innoworld.net

Andijon-2025

TAHRIRIYAT



Bosh muharrir

Odilov Furkat Umarbekovich

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i, PhD

Mas'ul kotib

Axmadjonov Sarvarbek Sodikovich

Andijon mashinasozlik instituti Transport va logistika fakulteti dekani, PhD.

Nashrga tayyorlovchi

Xomidov Anvarbek Ahmadjon o'g'li – Tahrirlovchi

Raxmonov Akmaljon Axmadjonovich – Texnik muharrir

TAHRIR KENGASHI A'ZOLARI

Rakhimov Akmal Alisherovich

“Mehnat muhofazasi” kafedrası mudiri, PhD.

Djalilova Turgunoy Abdujalilovna

Andijon mashinasozlik instituti Oliy matematika kafedrası dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Zaripova Dilnoza Yashinovna

Buxoro davlat tibbiyot instituti Akusherlik va ginekologiya kafedrası dotsenti, t.f.n.

Maxsudova Xolisxon Ummatovna

Andijon mashinasozlik instituti, O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri

Mirzayev Toxirjon Saloxetdinovich

Namangan davlat pedagogika instituti «Aniq fanlar» kafedrası katta o'qituvchisi

Yusupov Dilmurod Abdurashidovich

Namangan davlat pedagogika instituti “Aniq fanlar” kafedrası katta o'qituvchisi



O'ZBEK TILIDA MUROJAAT SHAKLLARI VA ULARNING GENDER XOSLANISHI

Tuxliyeva Yulduz

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy
maktabi
Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik tarjimashunoslik
magistratura mutaxassisligi 1-kurs magistranti**

Annotatsiya: Maqolada insonning nutqiy faoliyati va uning jinsga xos xususiyatlari, xususan, fatik kommunikatsiya jarayonida ko'rinadigan murojaat shakllari tahlil qilinadi. Fatik kommunikatsiya, ya'ni murojaat shakllari, kommunikatsiya jarayonida o'zaro munosabatlarni o'rnatishda, so'zlovchi va tinglovchining genderiga ta'sir qiladi. Maqolada erkak va ayol nutqida ishlatiladigan murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari va ularning farqlari, shuningdek, murojaatning grammatik va emotsional jihatlari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot, ayniqsa, sotsiolingvistika va ta'lim metodologiyasi kontekstida murojaat shakllarini o'rgatishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: murojaat shakllari, fatik kommunikatsiya, nutq, ijtimoiy-lisoniy tahlil, erkaklar nutqi, ayollar nutqi, sotsiolingvistika, ta'lim metodikasi, kommunikatsiya, jinsga xos farqlar.

Yer yuzida yashaydigan mavjudotlardan biri bo'lgan inson o'zining intellektual qobiliyati va nutq rivoji bilan boshqalardan farq qiladi. U o'z maqsadlarini, istaklari hamda orzularini ifodalashga imkon beradigan til orqali o'zga insonlar bilan muloqot qiladi va axborot almashinuvini amalga oshiradi. Ushbu jarayon hayot qonuniyatlarini muvozanatda saqlashga xizmat qiladi.

Inson boshqa barcha tirik mavjudotlar kabi bir turga mansub bo'lsa-da, ikkita jinsga bo'linadi. Ularning nutqiy faoliyati asosida, tilshunoslik nuqtayi nazaridan, bir-biridan farq qiluvchi tomonlari mavjud. Tildagi lisoniy va nolisoniy birliklardan foydalanish jarayonida ham muhim farqlar kuzatiladi. Shu sababli, ko'plab lisoniy va nolisoniy birliklar ma'lum jinsga xos bo'lib, gender jihatidan ajratiladi.

Mazkur maqolada biz tahlil qilmoqchi bo'lgan obyekt – bu til hodisalaridan biri sanaluvchi murojaat shakllari, ya'ni fatik kommunikatsiyadir. Fatik kommunikatsiya jarayonida adresant va adresatning jinsga xos farqlari nutqiy vaziyatda yaqqol namoyon bo'ladi. (Tadqiqot davomida ushbu hodisani sotsiolingvistikaning bir qismi sifatida o'rganib, uni o'qitish masalalariga ham alohida e'tibor qaratamiz.)

Izohli lug'atda "Murojaat" so'ziga shunday ta'rif beriladi:

- ko'rib chiqish, taqqoslash;
- biror narsa so'rash, ishni qayta ko'rish;
- birovga qarata aytilgan gap, qilingan da'vat, chaqiriq.

Axborot almashinuvi, ya'ni muloqot, I shaxs — so'zlovchi va II shaxs — tinglovchi o'rtasida dialog, polilog (ba'zan esa so'zlovchining o'ziga murojaat qilishi tarzidagi monolog) shaklida amalga oshadi. Bu jarayonni mazmunli, chiroyli va to'g'ri tashkil qilish uchun turli unsurlardan: mimika (yuz ifodalari, qo'l harakatlari), grammatik vositalar (morfemalar, jumladan, kichraytirish-erkalash va ko'plik-hurmat ma'nolarini ifodalovchi morfemalar), hamda leksik birliklar (bo'yoqdor va ko'chma ma'noli so'zlar)dan samarali foydalanish muhimdir.

Murojaat shakli (fatik kommunikatsiya) nutqiy jarayonning tarkibiy qismiga kirib, asosan, kommunikanlar orasida tinglovchining e'tiborini jalb etishga mo'ljallangan. Til vositasida amalga oshiriladigan muloqotda murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilinayotgan shaxsga dastlabki axborotni yetkazish vazifasini bajaradi.

Filologiya fanlari doktori, professor M.Qubonova "...jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy va tushunarli til bo'lmasa, jamiyatdagi ishlab chiqarish to'xtaydi, jamiyat sifatida yashash tugaydi va u parchalanib ketadi", deb ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, til zamonaviy jamiyatlarning hayot tarzi va rivojlanishining asosiy omilidir. Aslida, til ma'no va tushunchalarsiz mavjud bo'la olmaydi. Odamlar o'z murojaatlari va munosabatlarida aynan shu ma'noga tayanadilar. Insoniyat va jamiyatning o'zi ham til va nutq, ma'no va tushunchalar tufayli mavjudligini inkor etib bo'lmaydi.

Murojaat shakllarining ijtimoiy-lisoniy jihatlari Sh. Iskandarova, S. Mo'minov, M. Sulaymonov va Z. Akbarovanning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Z. Akbarova tomonidan murojaat shakllarining ijtimoiy xususiyatlari, undalma va murojaatning umumiy hamda farqli tomonlari, ifodalash usullari va vositalari, shuningdek, murojaatning ekstralingvistik va psixolingvistik omillar bilan bog'liqligi hamda tematik tasnifi keng tahlil qilingan. Tadqiqotchi Z. Akbarova undalma va murojaatning farqli hamda o'ziga xos tomonlarini yoritib, murojaatni ifodalovchi so'zga grammatik nuqtayi nazardan qaralsa, u undalma bilan to'liq mos tushishini, ammo mazmun jihatidan murojaat shakli sifatida bu so'z nafaqat so'zlovchining nutqi yo'naltirilgan shaxsni, balki istalgan obyektni ifodalay olishini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda, murojaat shakllari undalmadan ko'proq keng ma'noni ifodalaydi. Murojaat shakllarini ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tahlil qilar ekanmiz, u adresant va adresat o'rtasida aloqani o'rnatish bilan birga, suhbatning qanday rivojlanishini, kommunikanlarning o'zaro munosabatlarini, ularga xos hurmat, yosh, jins va milliy madaniyatni ham aks ettiradi.

Til orqali amalga oshiriladigan muloqotda murojaat shakli tinglovchi yoki murojaat qilingan shaxsga birinchi ma'lumotni yetkazish vazifasini bajaradi. Sotsiolingvist olimlarining murojaat so'zlarining ishlatilishi haqidagi xulosalarida eng muhim jihat shundaki, har qanday murojaat shakli uchun ma'lum sharoitlar va foydalanish joylariga doir qat'iy qoidalar mavjudligi ta'kidlanadi.

Albatta, to'g'ri qo'llanilgan murojaat shakli muloqotning muvaffaqiyatli va samarali o'tishini ta'minlaydi, aksincha, noo'rin ishlatilgan shakl suhbatni noto'g'ri yo'nalishga burib, salbiy ta'sirga olib kelishi mumkin. Muloqotning muvaffaqiyatli o'tishi uchun so'zlovchi, tinglovchining yoshi, lavozimi, mavqei va suhbatning vaziyatini hisobga olgan holda murojaat shaklini tanlashi zarur. Tinglovchi esa murojaat shakliga qarab, so'zlovchi va murojaat qilingan shaxs(lar) o'rtasidagi munosabatlarni, o'zaro kayfiyat va tuyg'ularni aniq anglab olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Murojaat shakllari obyektning aniq yoki noaniqligiga qarab ikki turga bo'linadi:

a) mavhum murojaat shakllari (ey, hoy, sen, siz);

b) aniq murojaat shakllari. Ushbu turdagi murojaatlarda ism, laqab, taxallus, insonning xos belgilari yoki xususiyatlarini ifodalovchi leksik birliklar, shuningdek, insonni atovchi nominativ birliklar murojaat shaklini bajaradi.

Murojaat shakllarini jinsiy jihatdan tahlil qilganda, erkak va ayol nutqida ishlatiladigan murojaat shakllari hamda ular uchun qo'llaniladigan murojaat shakllari alohida ko'rib chiqilishi kerak. Masalan, ayollar nutqini mulozamat va manzirat shakllaridan ajratib ko'rish qiyin, chunki bu turdagi so'zlar ayollar nutqining shirin va muloyim bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa, o'zbek ayollari bunday so'zlardan kundalik hayotda doim foydalanib turadi. Ushbu holatni A. Oripovning asaridagi bir parcha yordamida tahlil qilishga harakat qilamiz.

"Samoviy mehmon, besh donishmand va farrosh kampir" nomli she'rda quyidagi satrlar mavjud:

– Voy bechora bolaginam,
Dard zaptiga opti-ku! –
Holdan toyib boshqa ko'zi
Yumilib ham qopti-ku!

Rangini ko'r somon deysan,
Suvdanmikan yo o'tdan!
Shudoq deya farrosh kampir
Bo'la ketdi girgitton.

Ushbu parchada o'zbek ayolining boshqa bir sayyoradan yerga qulab tushib, noxush holatda yotgan mavjudotga nisbatan sof onalik tuyg'usi bilan g'amxo'rlik qilayotganligi tasvirlangan. "Voy bechora bolaginam" misrasida onaning yuzaga kelgan noxush vaziyatga nisbatan achinish va ehtirosli his-

tuyg'ulari ifodalangan. Bunday his-tuyg'ular faqat ayollarga xos bo'lib, bu misrada aniq va ochiq ko'rinadi. Aslida, falokat sodir bo'lishida bir nechta erkak olimlar ham ishtirok etadi, ammo ularda bunday hissiyotlar aks etmaydi. Buning o'rniga, ular "samoviy mehmonni tekshirayotgan" vaqtlarida, uni yanada yomonlashtirib, qattiq holatda qoldiradilar. Erkaklar tabiatan ayollarga qaraganda qo'rs va qo'polroq bo'lishadi, shuning uchun ular olim bo'lsalar ham, yaradorni tuzata olmaydilar. Bunday holatda, farrosh ayol esa bu ishni mukammal tarzda amalga oshiradi.

Kampir bilmas, kim u maxluq,
Yo bilsa ham unutdi.
Ichaqolgin, jon bolam, deb
Hatto unga suv tutdi.

O'shanda deng haligining
Qon chopdiya yuziga.
Duvva-duvva yosh ham keldi
Bittagina ko'ziga.

Kampirning uchinchi misradagi "jon bolam" deb mehr ko'rsatishi, hatto o'sha chalajon, bir ko'zli mavjudotni tiriltirib yuboradi. Ayollarga xos bo'lgan kuyunchaklik va onalik mehribonligi shu kichik parchada butunlay o'z ifodasini topgan. Bunday muomala, murojaat va munosabat shakllari faqat ayol jinsiga xos bo'lgan gender xususiyati hisoblanadi.

Endi quyidagi she'riy qismga diqqatni qaratsak:

Kechir, onam!

Ko'zingda g'am,

Azob bo'ldim joningga

Bu kun bayram,

Men bu kun ham

Bo'lolmadim yoningda...

Ushbu parchada aqlli farzandning (monolog shaklida) onasiga yo'llagan dardli va alamli murojaati tasvirlangan (bu parcha E.Vohidovning "Ruhlar isyoni" dostonida, mahbuslikda bo'lgan hind shoiri Nazrul Islom tilidan keltirilgan). Birinchi misradagi "onam" so'zi grammatik nuqtai nazardan undalma bo'lsa-da, mazmunan qaralsa, unda dard, alam va shu alamga yo'naltirilgan mehr ifodalanadi. Faqat "onam" so'zida aks etgan shu nozik ma'noviy jihatlar va uning emotsional o'ziga xos xususiyatlari murojaat shakli sifatida tahlil qilinadi.

Yuqoridagi parchalar orqali biz murojaat shakllarining jinsga xos xususiyatlarini aniq ko'rgan bo'ldik. Shu bilan birga, grammatik nuqtai nazardan undalmaga o'xshash bo'lsa-da, mazmunan murojaat obyektini ifodalovchi so'z murojaat shakli sifatida, faqat so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsga emas, balki har qanday obyektini ifodalashga xizmat qilishini tasdiqladik. Maqola davomida biz murojaat shakllarining faqat ba'zi jihatlari

bilan tanishdik. Murojaat shakllarining tadqiq qilinmagan ko'plab jihatlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish va tahlil qilishni yangi izlanishlarga havola qilamiz. Shuningdek, sotsiolingvistika fanida murojaat shakllarini muammoli ta'lim asosida o'rgatish metodik jihatdan samarali bo'lishini nazarda tutamiz.

Murojaat shakllarining evolyutsiyasi ijtimoiy tuzilmadagi o'zgarishlarni, ma'lum bir kommunikativ akt davomida u yoki bu shaklni tanlashni belgilaydi va ushbu tanlovga ta'sir qiluvchi ijtimoiy vaziyat parametrlarini ko'rsatadi. Diaxronik nuqtai nazardan leksik vositalarni o'rganishning ahamiyati, til va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir tarixining qanday muhim ekanligini anglash orqali, murojaatlarni nafaqat kommunikativ pragmatik, balki tarixiy va tadrijiy rivojlanish nuqtai nazaridan ham kognitiv asoslaridan tadqiq qilish zarur. Bunda, ayniqsa, muammoli-modulli yondashuv asosida rivojlangan didaktik nazariyalar va uslubiy g'oyalarni integratsiya qilish, ta'lim mazmunini loyihalashda integrativ yondashuvni belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akbarova Z. O'zbek tilida murojaat shakllari va uning lisoniy tadqiqi: fil.fan.nomz.diss. –Toshkent, 2007, 21-b.
2. Mo'minov S. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: filol. fanlari dokt diss. –Toshkent, 2000.
3. Musulmanova, N., Xo'jayev, N. 2023. Tilshunoslikda genderolingvistikaning shakllanish jarayoni. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, №5(1), B. 105-113. <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/55>
4. Musulmanova, N.R. Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent: OOO "AKTIV PRINT", 2021. –B. 184.
5. O'zbek tilining izohli lugati, 2 jild. –Toshkent, 2006. –B. 645.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent, "Sharq", 2019. -B. 228
7. Versehueren J.2000. Understanding Pragmatics [M] Beijing: Foreign Language Teaching and Research Press & London: Edward Arnold Publishers Ltd. –B. 313.
8. Vohidov E. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2019. - B. 361.
9. Қурбонова М. Гендеролингвистик тадқиқ янги парадигма сифатида // ЎТА, 2014. №2].